



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR NUTQ MADANIYATINI SHAKILLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Andijon davlat pedagogika insituti
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi
Olimova Ruxshonabonu Azamatjon qizi

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15233132>

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar nutq madaniyatini shakllantirishning nazariy asoslari, uning bolalar rivojlanishiga ta'siri, o'qituvchilarning va ota-onalarning rolini o'rganish ko'zda tutilgan. Nutq madaniyati bolalar shaxsiyatining asosiy tarkibiy qismlaridan biri sifatida, ularning ijtimoiy muloqotda muvaffaqiyatli bo'lishiga yordam beradi. Nutq madaniyatini rivojlantirish jarayoni bolalarning tilni to'g'ri va ravon ishlatish ko'nikmalarini shakllantirish, ular orasida to'g'ri muloqot va ijtimoiy aloqalarni o'rnatishga xizmat qiladi. Maqolada, shuningdek, bolalar nutqining rivojlanishiga pedagogik yondashuvlar, metodik vositalar, o'yin va interaktiv faoliyatlar kabi elementlarning ahamiyati tahlil qilinadi. Nutq madaniyatini shakllantirishdagi asosiy prinsiplar, metodik yondashuvlar va ularning amaliy qo'llanilishi mavzusi orqali, maktabgacha ta'limda bolalarning nutq madaniyatini yuqori darajada rivojlantirish uchun zarur bo'lgan nazariy va amaliy yondashuvlar taqdim etiladi.

Kalit so'zlar: nutq madaniyati, nutq rivojlanishi, so'z boyligi, talaffuz, ijtimoiy ko'nikmalar, muloqot madaniyati, etika, so'zlashuvda etik qoidalar, rasim va kartinkalar, interaktiv mashg'ulotlar, tafakkur, individual ehtiyojlar, ko'p tili muhit.

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutq madaniyatini shakllantirishda avvalo, bolalarning tilni to'g'ri ishlatish, yaxshi nutq odatlarini o'rgatish, va muloqotdagi madaniyatni oshirishga e'tibor qaratiladi. Nutq madaniyati - bu shaxsning nutq jarayonlaridagi muloqot ko'nikmalari, to'g'ri, aniq va madaniyatli gapirishni o'z ichiga oladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun nutq madaniyatini rivojlantirish, nafaqat ularga til o'rganishni, balki jamiyatda muloqotda bo'lishni ham o'rgatadi. Nutq madaniyati, asosan, tilni to'g'ri, aniq va tarbiyaviy jihatdan ifodalashni o'z ichiga oladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutq madaniyatini shakllantirishda kommunikativ kompetensiya muhim rol o'ynaydi. Bu — bolaning nutqni o'zgaralar bilan samarali, hurmatli va madaniy tarzda ishlatish qobiliyatidir. Shu bilan birga, bolalar ijtimoiy va madaniy muhitda qanday o'zaro aloqada bo'lishni ham o'rganadilar. Bolalarning nutq madaniyatini shakllantirishda psixologik yondashuvlar ahamiyatli. Bolalar o'z tajribalariga asoslangan nutqni rivojlantiradilar, shuning uchun ular bilan bog'liq bo'lgan psixologik jarayonlar, masalan, e'tibor va xotira, nutqni o'rgatishda muhim ahamiyatga ega. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutq madaniyatini shakllantirishda o'qituvchi va tarbiyachilarning metodik yondashuvlari ham katta ahamiyatga ega. Bu metodikalar o'yinlar, interaktiv mashg'ulotlar, hikoyalar va ko'rgazmalar orqali bolalarga o'rgatiladi. Har xil nutq va tilni rivojlantiruvchi faoliyatlar, masalan, xayoliy hikoyalar tuzish, rolli o'yinlar, bolalarga nutq madaniyati elementlarini o'rgatishda yordam beradi Bolalar o'zgaralar bilan muloqot qilishda o'z nutq madaniyatini rivojlantiradilar. Nutq madaniyatini shakllantirish nafaqat nutqni rivojlantirish, balki bolalarni ijtimoiy va madaniy jihatdan rivojlantirishdir. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqi rivojlanishning turli bosqichlarida bo'ladi, bu bosqichlarning har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bolalar nutqi kichik yoshdan boshlab, o'z-o'zini ifodalash, so'zlashuv uslubi, tilning grammatik asoslarini o'zlashtirish jarayonida rivojlanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutq madaniyatini rivojlantirishda o'yinlar, hikoyalar, ertaklar, she'rlar va boshqa didaktik materiallar ishlatiladi. Ushbu metodlar bolalarda so'z boyligini oshiradi, talaffuzni yaxshilaydi va muloqot madaniyatini shakllantiradi. Nutq madaniyatini shakllantirishda ota-onalar va tarbiyachilarning o'rni katta. Ular bolalarga nutqni rivojlantiruvchi faoliyatlarni o'rganishda yordam beradi, ularni to'g'ri talaffuz, aniq va ravon so'zlashuvga o'rgatadi. Nutq madaniyati – bu odamning nutqini til va axborot vositasi sifatida samarali, aniq, to'g'ri, adabiy va madaniy



talablarga mos tarzda ishlatish san'ati. Bu tushuncha maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqni to'g'ri shakllantirish va rivojlantirishni taqozo etadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutq madaniyatini shakllantirish – bu nafaqat tilni to'g'ri va ravon ishlatishni o'rgatish, balki madaniyatli va axloqli nutqni rivojlantirishga yo'naltirilgan jarayon. Nutq madaniyati, ayniqsa, bolalar uchun, keyingi yillarda ham o'ziga xos pedagogik muammolardan biri sifatida qaralmoqda. Nutq madaniyati deganda, nutqning aniq, ravon, oqilona, mantiqan to'g'ri va estetik jihatdan mukammal bo'lishi tushuniladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq madaniyatini shakllantirish o'ziga xos ahamiyatga ega, chunki bu yoshda til orqali o'z fikrini bildirish, boshqalar bilan muloqot qilish, ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishda asosiy davr hisoblanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq madaniyatini shakllantirish jarayonida bir nechta bosqichlarni ajratish mumkin:

Erta yoshda (1-3 yosh): Bu bosqichda bolalar oddiy so'zlar va iboralarni ishlatishga o'rganadilar. Ular ko'pincha o'z fikrlarini ifodalashda yordamga muhtoj bo'lishadi. Bu davrda nutqning asosiy jihatlari – so'z boyligi, talaffuz va so'zlarni to'g'ri ishlatish.

O'rta yoshda (3-5 yosh): Bolalar ko'proq murakkab gaplar tuza boshlaydilar. Shu davrda ular nutq madaniyatini shakllantirishga alohida e'tibor berish zarur. Bu bosqichda o'rgatiladigan asosiy ko'nikmalar – so'zlashuvda etikani hurmat qilish, savol berish va javob berish, o'z fikrini aniq ifodalash.

Keyingi yoshda (5-7 yosh): Bu davrda bolalar nutq madaniyatining asosiy tamoyillarini to'liq o'zlashtirishga yaqin bo'ladilar. Ular o'z fikrlarini izohli, aniq va oqilona ifodalash, shuningdek, nutq madaniyatining etik va psixologik jihatlarini rivojlantiradilar.

S. S. Shirokova – U maktabgacha yoshdagi bolalar nutq madaniyatini rivojlantirishda ijtimoiy-madaniy muhitning ahamiyatini ta'kidlagan. Bolalar nutqi ularning atrof-muhitdan, oilaviy va ta'lim muhitidan olingan tajribalar orqali shakllanadi. Nutq madaniyati bolalar bilan muloqotda ma'lumotlar, so'zlashish malakalari va etiketga rioya qilishni o'rganishga yo'naltirilgan. B. F. Lomov – U maktabgacha yoshdagi bolalarga nutq madaniyatini o'rgatishda rol o'ynaydigan eng muhim omil – bu til va madaniyatning bog'liqligidir. U o'rgatish jarayonida bolalar tilini to'g'ri va aniq ifodalashga e'tibor qaratish zarurligini ta'kidlagan. Shu bilan birga, maktabgacha yoshdagi bolalar nutq madaniyatini shakllantirishda muhim omillardan biri – bu bolalar bilan muloqot qilishda, ularga to'g'ri va izchil tilni o'rgatishda pedagoglarning faol ishtirokidir. Nutq madaniyatini o'rganish va rivojlantirish jarayonida bolalar nafaqat nutqning aniq qoidalarni, balki ularning muloqot madaniyatini ham egallashadi.

T. Ota-onalar, ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalar bilan doimiy aloqada bo'lishlari kerak. Ularning nutqi bolalar uchun asosiy model bo'lib, nutq madaniyatining shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Ota-onalar bolalariga turli hikoyalar aytib, so'z boyligini rivojlantirishga yordam berishlari lozim. Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq madaniyatini shakllantirish, nafaqat tilni o'rgatish, balki ular uchun muvaffaqiyatli jamiyat a'zosi bo'lishni ta'minlashning muhim jihatidir. Nutq madaniyatini rivojlantirish uchun samarali pedagogik yondashuvlar, o'qituvchilar va ota-onalar hamkorligida tizimli ishlarni talab qiladi.

U. Nutq madaniyati bolalar uchun faqat tilni o'rganish jarayoni emas, balki ijtimoiy muloqotda muvaffaqiyatli bo'lishning muhim omilidir. Nutq madaniyati bolaning o'zini ifodalash, boshqalar bilan samarali muloqot qilish va jamiyatga moslashish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun bu tushuncha nutqni to'g'ri va madaniy tarzda ishlatish, xatolarni kamaytirish, tilni samarali foydalanish va boshqalar kabi qobiliyatlarni rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqi o'zining rivojlanish bosqichlariga ega. Dastlabki yillarda (1-3 yoshda) bolalar oddiy so'z va qisqa jummalarni ishlatishadi. 3-6 yoshda esa ular murakkab frazalar va ko'p so'zli jummalarni yaratishga o'rganadilar. Nutq madaniyati bu davrda ortiqcha qat'iyatlilik, talaffuz xatolari va stilistik nuqtalarga e'tibor qaratiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutq madaniyatini shakllantirishda o'yinlar va boshqa faoliyatlarning roli katta. Musiqa, she'rlar, tasviriy san'at va hikoyalar orqali bolalar o'z nutqlarini o'zgartiradi va ularni



ma'lum bir madaniy me'yorlar asosida rivojlantiradilar. Har bir millatning nutq madaniyati o'ziga xos bo'lib, maktabgacha yoshdagi bolalar turli madaniyatlarni o'rganishda va ulardan foydalanishda muayyan yondoshuvlarni qo'llaydilar. Milliy va mahalliy til o'ziga xosligi ham bolalar nutq madaniyatini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun maxsus metodik qo'llanmalar va dasturlar ishlab chiqilgan bo'lib, ularning asosiy maqsadi – nutqni rivojlantirish va madaniy ifodalarini shakllantirishdir. Bular turli o'yinlar, mashqlar, teatr, qo'shiqlar, she'rlar va interfaol faoliyatlar orqali amalga oshiriladi. Nutqni rivojlantirishda bolalarga to'g'ri namuna ko'rsatish, ularni o'z fikrini ochiq va aniq ifoda etishga o'rgatish, shuningdek, mustaqil so'zlashuvni qo'llab-quvvatlash zarur. Yo'ldosheva nutq tarbiyasining har bir bosqichida bolalarga to'g'ri tilda o'z fikrlarini bayon qilish va uni axloqiy jihatdan to'g'ri tashkil etish muhimligini ta'kidlaydi. Bolalar bilan ishlashda aktyorlik va ritmik metodlar, o'yinlar va badiiy asarlarni o'qish kabi innovatsion metodlardan foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, maktabgacha yoshdagi bolalarda so'zlashuv madaniyatini shakllantirishda maktabgacha ta'lim muassasalarining roli ham muhimligini ko'rsatadi. O'qituvchilar va tarbiyachilar tomonidan to'g'ri metodik yondashuvlar va individual yondoshuvlar orqali bolalar nutqining madaniyatini rivojlantirish mumkinligi ko'rsatilgan. Nutq madaniyatini shakllantirish jarayonida bolalar bilan doimiy ravishda interaktiv muloqotda bo'lish, ularning nutqini yaxshilashga xizmat qiladigan amaliy mashg'ulotlar va o'yinlar tashkil etiladi. A. Usova bolalar nutqining rivojlanishida uning tarkibiy qismlariga katta e'tibor qaratdi. U bolalarning nutq madaniyatini shakllantirishda o'rganish jarayonini ikki asosiy bosqichga ajratadi: birinchi bosqichda bola oddiy muloqot tilini o'zlashtiradi, ikkinchi bosqichda esa u nutq madaniyatining rivojlangan shakllarini o'zlashtiradi. Usovaning fikriga ko'ra, bu jarayonning samarali o'tishi uchun o'qituvchi va ota-onaning maqsadli pedagogik yondoshuvi zarur. Usova bolalar nutqini rivojlantirishda faqat gapirishni emas, balki tinglash va tushunish ko'nikmalarini ham muhim deb hisoblaydi. Bolalar nutqining madaniyatini shakllantirishda, ularning so'zlarni tushunish, ma'no chiqarish, va nutqni aniq ifodalash ko'nikmalarini o'rgatish zarur. Usova tinglash va tushunishni rivojlantirishda o'yinlar va boshqa faoliyatlar orqali interaktiv yondoshuvni qo'llashni tavsiya qiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutq madaniyatini shakllantirishda individual yondoshuvni qo'llash zarurligini ta'kidlaydi. Har bir bola o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, nutqni o'rganishda har birining rivojlanish xususiyatlari hisobga olinishi kerak.

V. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda o'rganish jarayonini individual ehtiyojlarga moslashtirishni va nutqni rivojlantirish uchun ma'lum metodlarni qo'llashni tavsiya etadi. Vygotskiy esa nutq va tafakkurni uzviy bog'liq deb hisoblaydi. Uning fikriga ko'ra, nutq faqat kommunikatsiya vositasi sifatida emas, balki tafakkurni tashkil etuvchi vosita sifatida ham xizmat qiladi. Bolalar nutqni o'rganish jarayonida atrofdagi dunyoni tushunib, fikrlashni rivojlantiradilar. Bolaning tafakkuri nutq orqali shakllanadi, ya'ni nutq o'z ichida fikrlarning tuzilishini, mulohaza qilishni va xulosa chiqarishni o'zida aks ettiradi. Vygotskiy nutqning rivojlanishida ijtimoiy-madaniy muhitning o'rni katta deb ta'kidlagan. Bolalar ijtimoiy tajriba orqali nutq madaniyatini o'zlashtiradilar, va bu o'rganish faqat shaxsiy tajribadan emas, balki ijtimoiy munosabatlar va muloqotdan ham kelib chiqadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun eng samarali usullardan biri o'yin metodidir. O'yinlar orqali bolalar so'z boyligini rivojlantiradilar, nutq madaniyatini o'rgatish, nutqni ravon va tushunarli qilishda yordam beradi. Misol uchun, rolli o'yinlar, hayvonlarni yoki ob'ektlarni taqlid qilish orqali bolalar so'zlashuv madaniyatini o'rganadilar. Bolalarga hikoyalar o'qish, o'zlari hikoya qilishni talab qilish, nutqni rivojlantirishga yordam beradi. Hikoyalar orqali bolalar o'z fikrlarini tuzish va ifodalashni o'rganadilar. Bu usul, shuningdek, ularni tilga va nutq madaniyatiga hurmat bilan munosabatda bo'lishga o'rgatadi. Rasm, kartinkalar va boshqalar yordamida bolalar o'z fikrlarini so'z orqali ifodalashda yordam olishadi. Rasmi kartochkalar yordamida bolalar o'z fikrlarini bayon qilish va mavzuni to'g'ri tushunish ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan interaktiv mashg'ulotlar o'tkazish, ularni turli vaziyatlarga o'rgatish va ularga to'g'ri nutqni shakllantirish imkonini yaratadi. Masalan, guruhli mashg'ulotlar orqali bolalar bir-biri bilan muloqot qilishadi va turli so'zlashuv usullarini o'rganadilar. Agar bolalar ko'p tilli muhitda



yashayotgan bo'lsa, birinchi va ikkinchi tilning o'rganilish jarayonida nutq madaniyatini shakllantirishni o'rgatish zarur. Har ikki tilni o'rganishda bolalar uchun to'g'ri til qoidalarini tushuntirish, so'z boyligini oshirishga yordam beradi. Bolalarga badiiy asarlar, she'rlar va qo'shiqlarni o'qish orqali til va nutq madaniyatini rivojlantirish mumkin. Adabiyotlar orqali bolalar xayol va tasavvurlarini kengaytiradilar va nutqning estetik qirralarini o'rganadilar. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutq madaniyatini shakllantirish jarayoni, ularning ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishiga muhim ta'sir ko'rsatadi. Pedagogik metodlar va yondashuvlar orqali bolalarga to'g'ri nutqni o'rgatish, ularning o'zaro muloqotda bo'lishlari va shaxsiy ifodalarni to'g'ri va madaniy tarzda amalga oshirishlariga yordam beradi. Nutq madaniyati – bu nafaqat so'zlashuv qobiliyati, balki jamiyatda hurmatga sazovor bo'lishning, o'z fikrlarini aniq va ravon ifodalashning asosiy vositasidir.

Xulosa va takliflar Maktabgacha yoshdagi bolalar nutq madaniyatini shakllantirish — bu bolaning intellektual rivojlanishining asosiy elementlaridan biri bo'lib, ularning shaxsiyati va jamiyatda o'z o'rnini topishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Nutq madaniyatining rivojlanishi orqali bolalar nafaqat o'z fikrlarini aniq va mantiqiy ifodalashni o'rganadi, balki ular o'rtasida ijtimoiy munosabatlar, muloqot madaniyati va axloqiy me'yorlarni ham mustahkamlashadi. Shu sababli, maktabgacha ta'limda nutq madaniyatini shakllantirish tizimli, ijtimoiy-psixologik va pedagogik yondashuvlarni talab etadi. Nutq madaniyati bolalarning o'zini anglashiga, atrof-dagi dunyoni anglashga yordam beradi va muloqotda to'g'ri so'zlash, gapirish va tinglash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bularning barchasi bolaning shaxsiyatini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Nutq madaniyatining shakllanishi, shuningdek, bolalar o'rtasida ijtimoiy integratsiyani ta'minlaydi, ularning jamiyatga moslashishiga yordam beradi va kelajakdagi muvaffaqiyatli ta'lim olishlarida muhim rol o'ynaydi. Nutq madaniyatini shakllantirish jarayonida bolaning atrof-muhitini ham inobatga olish zarur. Ota-onalar, tarbiyachilar va jamiyatning nutq madaniyati bolalar uchun namunaviy bo'lishi kerak. Ota-onalar bilan hamkorlikda bolalarga nutq madaniyati bo'yicha maxsus treninglar va maslahatlar o'tkazish samarali bo'ladi. Bugungi kunda zamonaviy texnologiyalar bolalarning nutq madaniyatini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Internet-resurslar, mobil ilovalar, audiovizual materiallar orqali bolalar uchun interaktiv o'yinlar va mashg'ulotlar tashkil etish mumkin. Bu bolalarning nutqni o'zlashtirish jarayonini qiziqarli va samarali qiladi. Badiiy adabiyotlar, jumladan ertaklar va hikoyalar, bolalarga nafaqat nutqni to'g'ri ishlatishni o'rgatadi, balki ular bilan axloqiy me'yorlarni ham o'rgatadi. Pedagoglar bolalar bilan badiiy asarlar asosida suhbatlar o'tkazib, ularning nutq madaniyatini mustahkamlashlari kerak. Tarbiyachilarning nutq madaniyatini shakllantirishga bo'lgan yondashuvi, bilim va malakasi ular bilan ishlayotgan bolalarning natijalariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun tarbiyachilarning kasbiy malakalarini muntazam ravishda oshirib borish, zamonaviy pedagogik uslublar va metodlardan foydalanishni o'rgatish muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. L.S. Vygotskiy – "Psixologiya va til" (1934).
2. A.N. Leontiev – "Psixologiya va nutq" (1969).
3. M.I. Laktionov – "Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish" (1980).
4. A.A. Zaporozhets – "Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi" (1977).
5. R.A. Shor – "Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqining rivojlanishi" (1993).